

## Til o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar

**Xalliyeva Qizilgul Rajapboyevna**

Urganch Innovatsion University  
nemis tili fani katta o‘qituvchisi

[xalliyevaqizilgul@urgiu.uz](mailto:xalliyevaqizilgul@urgiu.uz)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy til o‘qitish yondashuvlari tahlil qilinadi. Asosiy diqqat metodologiyalarga, shuningdek, innovatsion texnologiyalardan foydalanishga qaratiladi. Maqolada til o‘qitishda kommunikativ yondashuv, faol o‘qitish usullari va interaktiv texnologiyalarning o‘rni hamda o‘quvchilarni o‘zlashtirish jarayonida motivatsiyaning ahamiyati ko‘rsatiladi. Zamonaviy o‘qituvchilar uchun tavsiyalar berilib, o‘qitish jarayonini samaraliroq qilish uchun yangi metodlar va strategiyalar taklif etiladi.

**Kalit so‘zlar:** metodologiya, innovatsion texnologiya, kommunikativ yondashuv, interaktiv texnologiya, o‘qitish usullari, motivatsiya.

**Kirish.** Zamonaviy ta‘limda til o‘qitish jarayoni oldiga bir qator yangi talablar qo‘yilmoqda. Globalizatsiya va kommunikativ texnologiyalarning rivojlanishi natijasida, o‘quvchilar o‘zaro aloqlar, muloqot qilish va turli madaniyatlarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Shu bois, til o‘qitish metodlari ham yangilanmoqda. Quyida metodlarga misollar keltilgan:

### 1. Kommunikativ yondashuv

Kommunikativ yondashuv – bu tilni o‘qitishda eng samarali usullardan biri bo‘lib, asosiy e’tibor kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu yondashuvda talabalar tilni faqat nazariy o‘rganmay, balki haqiqiy hayotiy vaziyatlarda muloqot qilishadi. Yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Real hayotiy vaziyatlar
- O‘zaro muloqot
- Mavzu va tillarni integratsiyalash

O‘qituvchilar o‘z darslarini haqiqiy hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lab olib borishlari kerak. Masalan, restoran muhitini yaratish, xarid qilish yoki sayohat qilish sahnalarini tasvirlash orqali o‘quvchilar tilni amaliy muloqotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.



## **2. Faol o‘qitish usullari**

Faol o‘qitish usullari o‘quvchilarni o‘z faoliyatida jalb qilishga qaratilgan. Ushbu yondashuv ko‘plab interaktiv metodlarni o‘z ichiga oladi, masalan:

- Guruhli ishlar

O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, muayyan masalani yechishlari yoki ma’lum bir mavzuda fikr almashishlari so‘raladi. Bu jarayon ularning muloqot ko‘nikmalarini oshiradi.

- Rolli o‘yinlar

O‘quvchilar turli ijtimoiy rollarni bajarib, muloqot ko‘nikmalarini yaxshilaydi. Rol o‘yinlari orqali ular haqiqiy hayotiy vaziyatlarda qanday muloqot qilishni o‘rganadilar.

- Vaziyatli simulyatsiyalar

Shunga o‘xhash simulyatsiyalar yordamida o‘quvchilar turli vaziyatlarga tayyorlanib, ularda qanday muloqot qilishlarini amalda sinab ko‘rishlari mumkin.

Bu usullar o‘quvchilarga o‘z fikrlarini ifodalay olish, muloqot qilish va guruhda ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

## **3. Innovatsion texnologiyalar va o‘qitish**

Zamonaviy texnologiyalar, xususan, onlayn kurslar, ta’lim platformalari va multimedya vositalari til o‘qitishni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bu vositalar yordamida o‘quvchilar:

- Interaktiv darslarda ishtirok etishadi
- Online resurslardan foydalanishadi
- O‘z bilimlarini nazorat qilish imkoniyatini oladilar

Coursera, Duolingo yoki edX kabi platformalar orqali o‘quvchilar o‘z vaqtlarida mustaqil ravishda o‘qib, o‘z bilimlarini oshirishlari mumkin. Video, audio va interaktiv dasturlar yordamida til o‘qitish jarayoni ko‘proq qiziqarli va samararali bo‘ladi. Masalan, YouTubeda taqdim etilgan turli darslar orqali o‘quvchilar tilning talaffuzini va nutq adabiyotlarini yaxshilashlari mumkin.

## **4. Motivatsiyaning roli**

O‘quvchilarni motivatsiyalash o‘qitish jarayonida muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilar turli usullarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirishi mumkin. Masalan, o‘quv jarayonini gamifikatsiya qilish, o‘yin elementlarini kiritish va o‘zaro raqobat muhitini yaratish. O‘yin elementlarini dars jarayoniga kiritib, o‘quvchilarni motivatsiyalash mumkin. Masalan, doimiy ravishda “ma’lumot

to‘plovchi turnirlar’ o‘z vaqtida vaqt ichida o‘z bilimlarini baholashga yordam beradi. O‘quvchilarni bir-biriga raqobat qilishga undiradigan faoliyatlar yaratish, masalan, til bilish bo‘yicha musobaqalar o‘zaro hamjihatlikni kuchaytirishi mumkin.

**Xulosa.** Zamonaviy til o‘qitish yondashuvlari davom etayotgan globalizatsiya jarayonida hayotiy ahamiyatga ega. Ular o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashmoqda. O‘qituvchilar zamonaviy metodlarni, innovatsion texnologiyalarni va samara beruvchi yondashuvlarni qo‘llab, o‘quvchilarni tilni o‘rganishga rag‘batlantirishlari zarur. Ushbu maqolada ko‘rsatilgan yondashuvlar va takliflar til o‘qituvchilari uchun foydali bo‘lishi mumkin. Yana bir bor qayd etish joizki, har bir yondashuv va metod o‘ziga xos sharoitlarda samaralidir, shuning uchun ularni mustaqil ravishda moslashtirish va sinab ko‘rish kerakdir.

#### Foydalilanligan adabiyotlar:

1. Harmer, J. (2015). *The Practice of English Language Teaching*. Pearson Education.
2. Wright, A., & Betteridge, D. (2015). *Games for Language Learning*. Cambridge University Press.
3. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
4. Blin, F., & Jalkanen, J. (2018). *Technology in Language Teaching*. In *The Handbook of Technology and Second Language Teaching and Learning*.
5. Ur, P. (2012). *A Course in Language Teaching: Practice and Theory*. Cambridge University Press.

# Research Science and Innovation House